KIYIKO’T (ZIZIPHORA) O’SIMLIGINING KIMYOVIY TARKIBI VA MAKRO VA MIKRO ELEMENTLAR ISP-MC TAHLILI

Tursunov Quvonchbek Shuxratjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti magistranti
Tursunova Xushro’ybegim Sherzodjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7674495

Annotatsiya: Zamonaviy tibbiyotda kiyiko’tdan tayyorlangan damlama va qaynatmalar (10% li) gipertoniya kasalligi, stenokardiya, qon aylanishining yetishmovchiligi, o'tkir glomerulonefritlar, buyrak-kasalligida. Shuningdek, diabet, stomatit, paradontozda, furunkulyoz va boshqa teri kasalliklarida ishlatiladi. 20% li damlamasi aritmiyalar (taxikardiya, eksrosistoliya) bilan o’tayotgan yurak-tomirlar yetishmovchiligida, shuningdek, nevrasteniyada foyda beradi. Kiyiko’tning galen preparatlari (damlama va qaynatma) qon bosimini pasaytiradigan, yurakka quvvat beradigan tinchlantiruvchi ta’sirga ega. Bu preparatlar yurak toj tomirlarini kengaytiradi, buyrakda qon aylanishini kuchaytiradi va siydik ajralishini ko‟paytiladi. Kiyiko‟ti tarkibida A, E vitaminlari, biologik faol moddalar, mentol, saponinlar kabi moddalar mavjud.

Kalit so’zlar: Kiyiko’t o’simligi, efir moylari, qatronsimon moddalar, flavonoidlar, fenolokislotalar, antotsianlar, ursol kislotasi, kumarinlar, stenokardiya, vitaminlar, organik kislota, mentol.

Аннотация: В современной медицине настойки и отвары, приготовленные из оленя (10%), применяют при гипертонии, стенокардии, недостаточности кровообращения, остром гломерулонефрите, заболеваниях почек. Его также применяют при сахарном диабете, стоматите, пародонтите, фурункулезе и других кожных заболеваниях. Настойка 20% полезна при сердечно-сосудистой недостаточности с аритмиями (тахикардия, экстрасистолия), а также при неврастении. Галеновые препараты (настой и отвар) киикота обладают успокаивающим действием, снижают кровяное давление и укрепляют сердце. Эти препараты расширяют коронарные сосуды сердца, усиливают кровообращение в почках и увеличивают диурез. Киикоти содержит такие вещества, как витамины А, Е, биологически активные вещества, ментол, сапонины.

Ключевые слова: растение пажитник, эфирные масла, смолистые вещества, флавоноиды, фенольные кислоты, антоцианы, урсоловая кислота, кумарины, стенокардия, витамины, органические кислоты, ментол.

Abstract: In modern medicine, tinctures and decoctions made from deer (10%) are used for hypertension, angina pectoris, blood circulation insufficiency, acute glomerulonephritis, and kidney disease. It is also used for diabetes, stomatitis, periodontitis, furunculosis and other skin diseases. A 20% tincture is useful in cardiovascular insufficiency with arrhythmias (tachycardia, extrasystole), as well as in neurasthenia. Galenic preparations (infusion and decoction) of Kiyikot have a calming effect that lowers blood pressure and strengthens the heart. These drugs expand the coronary vessels of the heart, increase blood circulation in the kidney and increase urine output. Kiyikoti contains substances such as vitamins A, E, biologically active substances, menthol, saponins.

Key words: Fenugreek plant, essential oils, resinous substances, flavonoids, phenolic acids, anthocyanins, ursolic acid, coumarins, stenocardia, vitamins, organic acid, menthol.

Kiyiko’t. Колинад. Зизифора цветожная. Ziziphora pedicellata Pazij. Lamiaceae. Yalpizdoshlar oilasi. O’zbekistonda 7 ta turi uchraydi.

Batanik ta’rifi. Poyasi 40-50 sm gacha bo’ladi, barglari qarama-qarshi joylashgan. O’zbekistonning qum tuproqli, mayda shag’alli dasht va tog’ yonbag’ilarida tarqalgan.

Ishlatiladigan qismlari. Yer ustki qismi (o’ti), ildizlari. May-iyunda gullaydi. Mevalari iyulda yetiladi. O’ti gullash davrida o’rib olinadi.

Kimyoviy tarkibi. Kiyiko’tda triterpen glikozidlar, flavanoidlar, oshlovchi moddalar, kumarinlar va oksikumarinlar, aminokislotalar, vitaminlar, tokoferol bor. Kiyiko’t selen to’plab boradigan o’simliklar jumlasiga kiradi. O’tida 1,5 mg % gacha selen topilgan. Bu o’simlikda har xil mikro-va makroelementlar bor (kalsiy, kremniy, alyuminiy, temir, magniy, kobalt, rux, mis, marganes, molibden). Ta’siri va ishlatilishi. Ibn Sinoning yozishicha, kiyiko’t yelimi tarkibida ko’zga davo bo’ladigan moddalar bor, u issiq yo’talni yumshatish xususiyatiga ega, o’pka yaralarining asoratlarini kamaytiradi va ovozni yaxshilaydi. [1]

Xitoy tabobatida ildizidan tayyorlangan tinktura yoki kukun turli meda-ichak kasalliklariga qarshi, shuningdek, siydik haydaydigan va terlatadigan vosita sifatida qo’llaniladi. Uni diabet kasalligida, shuningdek, furunkulyoz, piodermiada boshqa dorivor o’simliklar bilan birgalikda ishlatish buyuriladi. Kiyiko’t ildizidan (suvidan) tayyorlangan ekstrakt infeksiya tushgan jarohatlarga, yaralarga qo’yish uchun ishlatiladi. Zamonaviy tibbiyotda kiyiko’tdan tayyorlangan damlama va qaynatmalar (10%li) gipertoniya kasalligi, senokardiya, I, II darajali qon aylanishi yetishmovchiligi, o’tkir glomerulonefritlar, buyrak, tomir kasalliklari, shuningdek, diabet, stomatit, paradondoza, furunklyoz va boshqa teri teri kasalliklarida ishlatiladi.

Ukrainada kiyiko’t qaynatmasini ko’krak qafasi kasalliklarida balg’am ko’chiruvchi, ko’p siydik haydovchi vosita sifatida buyuriladi. Keksa odamlarga buyrak kasalliklarida, badanga shish kelganda, bo’g’im revmatizm, asab kasalliklarida beriladi. Kiyiko’t jigarga, buyrakka, ayniqsa yaxshi ta’sir ko’rsatib, ularning funksional holatini izga soladi. 20 % li damlamasi aritmiya (taxikardiya, ekstrosistoliya) kechayotgan yurak-tomirlar yetishmovchiligida, shuningdek, nevrasteniyada durustgina naf beradi.[6]

Kiyiko’tining galen preparatlari (damlama va qaynatmalari) qon bosimini pasaytiradigan, yurakka quvvat beradigan va sezilarli darajada tinchlantiruvchi ta’sir etishi tajribada kuzatilgan. Bu preparat yurakka yaxshi ta’sir qilishi bilan bir qatorda, yurak toj tomirlarini kengaytiradi, buyraklarda qon aylanishini kuchaytiradi, shu munosabat bilan siydik haydovchi ta’sir ko’rsatadi.

O’simliklar dunyosi boy va xilma-xildir. O’simliklardan insoniyat qadim zamonlardan beri turli maqsadlarda foydalanib keladi. Jumladan, oziq sifatida, kiyim-kechak uchun, davolash maqsadida va estetik zavq olish uchun. Shu sababdan ham o’simliklarni o’rganish, ularni sistemalash, oila, tur va turkumlarga bo’lish talab etilgan va ayrim oila yoki tur vakillari olimlar tomonidan chuqur o’rganilgan.[2]

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMASI

1-jadval. Kiyik o’ti o’simligining tarkibida uchraydigan makro va mikro elementlar ISP-MC tahlili.

No	Elementlar	Bargida	Ildizida
1	Li 7 (mg/l)	0,164	0,996
2	Be 9 (mg/l)	-0,001	0,051
3	B 11 (mg/l)	2,061	1,905
4	Na 23 (mg/l)	-88,257	34,072
5	Mg 24 mg/l)	541,639	554,017
6	Al 27 (mg/l)	152,134	529,336
7	Si 28 (mg/l)	181,655	434,315
8	S 32 (mg/l)	107,633	75,622
9	K 39 (mg/l)	7157,132	3678,799
10	Ca 42 (mg/l)	17960,467	13133,481
11	Ti 48 (mg/l)	11,563	22,031
12	V 51 (mg/l)	0,184	2,397
13	Cr 52 (mg/l)	0,609	1,370
14	Mn 55 (mg/l)	17,320	27,217
15	Fe 57 (mg/l)	783,386	1828,288
16	Co 59 (mg/l)	-0,047	0,181
17	Ni 60 (mg/l)	0,632	0,930
18	Cu 63 (mg/l)	2,915	4,487

19	Zn 66 (mg/l)	11,533	5,340
20	Ga 69 (mg/l)	1,141	0,945
21	Ge 74 (mg/l)	0,004	0,020
22	As 75 (mg/l)	0,118	0,268
23	Se 82 (mg/l)	0,345	0,375
24	Pb 85 (mg/l)	4,134	4,839
25	Sr 88 (mg/l)	12,912	9,242
26	Zr 90 (mg/l)	0,068	0,299
27	Nb 93 (mg/l)	0,008	0,043
28	Mo 98 (mg/l)	-0,032	0,020
29	Ag 107 (mg/l)	-0,003	0,001
30	Cd 111 (mg/l)	0,013	0,059
31	Sn 118 (mg/l)	-3,926	-2,572
32	Sb 121 (mg/l)	0,012	0,061
33	Cs 133 (mg/l)	0,01	0,054
34	Ba 138 (mg/l)	20,358	14,449
35	W 184 (mg/l)	0,007	0,045
36	Pb 208 (mg/l)	1,309	1,369
37	Bi 209 (mg/l)	0,004	0,006
38	U 238 (mg/l)	0,033	0,087

Xulosa: Bu o’simlikda har xil mikro-va makroelementlar bor (kalsiy, kremniy, alyuminiy, temir, magniy, kobalt, rux, mis, marganes, molibden).

Kiyiko’t selen to’plab boradigan o’simliklar jumlasiga kiradi. O’tida 1,5 mg % gacha selen topilgan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O‘simlik preparatlari Abu Ali ibn Sino (Avitsen). Ma’lumotnoma // Sh.B.Irgashev tahriri ostida. – Toshkent: Abu Ali ibn Sino, 2003. – 457 b.

2. Sattarov D.S. Markaziy Tojikistonning ayrim hududlaridagi yovvoyi dorivor o‘simliklarning biologik xilma-xilligi va resurslari// Abstrakt. Fanlar, Novosibirsk, 2019, -36 b.

3. Tibbiyot amaliyotida foydalanish uchun tasdiqlangan dori vositalari, tibbiy texnika vositalarining davlat reestri. Registr. // MChJ "MUXR PRESS". Toshkent - 2019 yil.

4. Tibbiyot amaliyotida foydalanish uchun tasdiqlangan dori vositalari, tibbiy texnika vositalarining davlat reestri. Registr. // MChJ "MUXR PRESS". Toshkent - 2020.

5. Tibbiyot amaliyotida foydalanish uchun tasdiqlangan dori vositalari, tibbiy texnika vositalarining davlat reestri. Registr. // MChJ "MUXR PRESS". Toshkent - 2021 yil.

6. Saxobiddinov S.S. O'rta Osiyoning yovvoyi dorivor o‘simliklari. – Toshkent: O‘zbekiston SSR Davlat nashriyoti, 1948. – 216 b.

7. Singh N, Gupta AK, Juyal V and Chettri R: Study on Antipyretic Activity of Extracts of Bergenia Lingulata Wall. International Journal of Pharma and Bio Sciences 2010; 3: 1-5.

8. Sina I: Al-Qanoon Fil Tibb. Idara Kitabul Shifa, New Delhi, 2010: 482, 1519-1525

9. http://www.cnshb.ru/AKDiL/0045/bse/k0420031.shtm

10. https://docplayer.ru/71564517-udk-gorechavka-zhyoltaya-olive-primenenie-v-medicine.html

11.http://www.plantsofotheworldonline.org/taxon/urn:lsid:ipni.org:names:368595-1